

## II JAHON URUSHIDAN KEYINGI YILLARDA O'ZBEKISTON AHOLISI: MILLIY O'SISH VA IJTIMOY O'ZGARISHLAR

**Mardonov Ravshan Rabbano o'g'li**  
*Samarqand davlat chet tillar instituti tyutori*

**Annotatsiya:** *Urushdan keyingi yillarida mamlakatning ichki resurslari, tabiiy boyliklari va arzon ishchi kuchini g'oyat kuchli ekspluatatsiya qilish evaziga, xorijiy sarmoyalardan bosh tortgan holda olib borilgan iqtisodiyotni tiklash xalq boshiga og'ir kunlarni keltirdi.*

Ikkinchi jahon urushi yillari davrida izdan chiqqan O'zbekiston iqtisodiyoti urushdan keyingi 1946-1950-yillari g'oyat keskinlashgan xalqaro vaziyatda qayta tiklana boshladi. Mamlakatning ichki resurslari, tabiiy boyliklari va arzon ishchi kuchini g'oyat kuchli ekspluatatsiya qilish evaziga, xorijiy sarmoyalardan bosh tortgan holda olib borilgan iqtisodiyotni tiklash xalq boshiga og'ir kunlarni keltirdi. O'zbekiston xalq xo'jaligini tiklash ishlari sovet hukumatining zo'r berib qurollanish siyosatiga buysundirildi. Ayni bir vaqtda o'zbek xalqi urushda vayron bo'lgan o'lkalarni tiklashga ham o'z hissasini qo'shdi. Urush davrining shart-sharoitlari saqlangan holda xalqning mardona va fidokorona mehnati bilan besh yil ichida sanoat mahsulotini ishlab chiqarish urushdan avvalgi darajaga yetib, deyarli ikki marta oshib ketdi. Bu esa aholi sonining o'zgarishiga ham tasir qildi.

Ikkinchi jahon urushi O'zbekiston aholisining soniga, uning tarkibi va joylashuviga nihoyatda salbiy ra'sir ko'rsatadi. Urush natijasida Respublika 1 miliondan ortiq aholisini yo'qotdi. Aholining umumiy soni 1940-45-yillarda 6.6 million kishidan 5.2 million kishigacha kamaydi.

Urushdan keyingi davrda aholi o'sish suratlarida ijobiy o'zgarishlar bo'ldi. Aholining soni 5.2 milliondan 8.4 milliongacha ko'paydi. Bunda ham sof tabiiy ko'payishdan ko'ra chetdan ko'chirib keltirilgan aholining salmog'i kata bo'ldi.

XX asrning 60-80-yillarida respublika aholisi tarkibida o'zbeklarning soni muntazam ravishda yuqori sur'atlar bilan ko'payib bordi. 1989-yil o'zbeklar salmog'i respublika aholisining tarkibida 71,4 % ni tashkil etgan.

1939-2004-yillar, ya'ni 65 yil moboynida respublika aholisi 4 marta ko'paygan bo'lsa, bu ko'rsatkich shahar joylarda 6.4 va qishloqlarda 3.3 martani tashkil etgan. Albatta, ko'rilayotgan davrning turli oraliqlarida va qishloq hamda shahar joylarda aholi sonining ko'payish sur'ati turlicha bo'lgan.

Jumladan, 1939-1959-yillarda jami aholi 127,9 % ga, shahar aholisi 185,6 % va qishloq aholisi 108,5 %ga o'sgan. 1959-1970-yillarda respublika jami aholisi 145,3 %ga, shahar aholisi 158,4 % va qishloq aholisi 141,3 %ga o'sgan, o'rtacha bir yillik ko'payish 3,45, 4,25 va 3,20 %ni tashkil etgan. Aynan shu yillar O'zbekiston o'zining tarixiy demografik rivojlanishining eng yuqori

ko'rsatkichlariga erishgan. Bunga asosiy sabab urush davrida ko'plab xalqlarning O'zbekistonga ko'chirilishi bo'ldi. Xususan urush yillarida Qirimdan 151604 nafar qirim tatarlari, Guruziyadan 110000 nafar mesxeti turklari, Shimoliy Kavkazdan 175000 nafar chechinlar, 20000 nafardan ortiq ingushlar, 4500 nafardan ortiq bolgar va greklar O'zbekistonga ko'chirilganlar.

Urushdan keyingi yillarda Boltiqbo'yi xalqlarining mamlakatimizga ko'p sonli bo'lib kelish davri 1966-yildan boshlandi. Shu yilda Toshkentda kuchli zilzila bo'lishi shaharni vayron qildi. Shaharni qayta tiklash uchun Ittifoq tarkibidagi respublikalar, jumladan, Boltiqbo'yi respublikalari ham yordam ko'rsatdi.

O'zbekistonning mustaqil rivojlanish yo'liga o'tishi uning demografik tarixida mazmunan yangicha bosqichga o'tishni taqozo etdi. Respublikada bozor munosabatlarining shakllanishi, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy sharoitlarning o'zgarishi natijasida yangi demografik jarayon boshlandi: tug'ilish keskin kamaydi, mamlakatdagi slavyan xalqlar, yahudiy, mesxeti turk, grek, ukrain, nemis va boshqa xalqlarning ma'lum qismi o'z tarixiy yurtlari va boshqa xorijiy davlatlarga ko'chib ketdi. Eng katta manfiy migratsiya saldosini 1990-yilda kuzatilib, 181,2 ming kishini tashkil etdi. Mazkur demografik jarayonlar O'zbekiston aholisining o'sish sur'atlarini qisqarishiga olib keldi. Keyingi 15-yil davomida respublika aholisi 4,8 millionga ko'paydi, o'sish sur'ati 1,8 %ni, o'rtacha yillik mutlaq ko'payish soni 400 ming kishini tashkil qildi.

Undan keyingi-yillarda aholi sonining o'sishi biroz susaygan, biroq shahar aholisining qishloq aholisiga nisbatan tezroq ko'payish jarayoni saqlanib qolgan. Masalan, 1970-1979-yillarda shahar aholisi 146,9 %ga, qishloq aholisi 120,9 % va jami aholi soni 130,4 %ga ortgan. 1979-1989-yillar mobaynida shahar aholisi 126,7 va qishloq aholisi 130,1 %ga o'sgan. Ko'rinib turibdiki, bu davrdan respublika qishloq joylarining demografik rivojlanishi shahar va shaharchalarga qaraganda ustunroq bo'lgan. Urbanizatsiya jarayonining bunday zaiflashuvi o'tgan asrning 80-yillarining 2-yarmidan boshlangan, 1984-yilda shahar aholisining ulushi 42 %gacha ko'tarilgan va shundan so'ng u asta-sekin kamayib borgan.

O'zbekistonda aholining ijtimoiy tarkibi turli davrlarda turlicha bo'lgan. Respublikada ishchi va xizmatchilarning soni va ulushi XX asrning 90-yillarigacha bo'lgan davrda o'sib borgan. Mazkur davrda ishchi va xizmatchilarning ulushi 32,2 % dan 79,7 % gacha ko'paygan. O'zbekiston doimiy aholisi soni o'sishi 1920 yilda 4,4 million kishini tashkil qilgan. Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, bu ko'rsatkich 1930 yilda 4,9 million kishiga, 1940 yilda 6,6 million kishiga, 1950 yilda esa 6,2 million kishiga teng bo'lgan. Bundan tashqari, 1960 yilda doimiy aholisi soni o'sishi 8,4 million kishini, 1970 yilda 11,8 million kishini tashkil etgan. Ushbu ko'rsatkich qolgan yillar kesimida quyidagicha ko'rinish oldi:



1980 yil 15,8 million kishi;  
1990 yil 20,2 million kishini tashkil qilgan.

#### FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Karimov I.A. “Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q”. T., “Sharq”, 1998
2. Karim Shoniyozov. “O‘zbek xalqining shakillanish jarayoni”. T., “Sharq” 2001
3. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 1-jild, Toshkent 200-yil, O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti.
4. [uz.wikipedia.org](http://uz.wikipedia.org) internet sayti

